



QURILISH, UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VA
QURILISH MATERIALLARI SANOATI SOHALARIDA
KASBIY MALAKALARNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA
TARMOQ KENGASHI

KASBIY STANDART

QURILISHDA BETON QUYUVCHILAR



“Qurilishda beton quyuvchilar” kasbiy standarti 2025-yil 18-dekabrdagi Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha Respublika kengashi majlisining 114-son bayoni bilan tasdiqlangan “Kasbiy standart shakli” hamda Milliy malaka tizimini rivojlantirish instituti direktorining 2025-yil 19-dekabrdagi 55-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Kasbiy standartlarni ishlab chiqish va yangilash metodologiyasi”ga muvofiq, Qurilish, uy-joy kommunal xo‘jaligi va qurilish materiallari sanoati sohalarida kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashi tomonidan ishlab chiqilgan.

KASBIY STANDART

Qurilishda beton quyuvchilar

Reyestr raqami:

UZ-KS-2026-T1.0-0040



I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu kasbiy standart "Armaturchi", " Armaturchi betonchi", " Betonchi ", " Betonchi-duradgor "(opalubkachi) va "Sementlovchi" kasblari bo'yicha ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli vazifalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi — kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi “Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5577-son Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi qurilish tarmog‘ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6119-son Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-avgustdagi “Ma‘muriy islohotlar doirasida qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-151-son Farmoni.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT 2.1- Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi;

SHHV - Shaxsiy himoya vositalari.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Qurilishda beton quyuvchi	
2.	Kasbiy faoliyatning asosiy maqsadi:	Turar joy, noturar joy va sanoat binolari va inshootlarni qurishda beton qorishmasini, qolipni tayyorlash, armatura to'rlari karkaslarni tayyorlash va o'rnatish, beton qorishmasini quyish, betonga qarov o'tkazish, qolipni ajratish ishlarini qurilish me'yorlari va qoidalari, xavfsizlik texnikasi hamda yong'in va mehnat muhofazasi talablariga muvofiq bajarish.	
3.	IFUT 2.1 bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf	F seksiyasi Qurilish 41 Bino va inshootlar qurish 41.0 Turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish. 41.00 Turar joy va yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish. 41.00.1 Turar joy binolarini qurish 41.00.2 Yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Bino va inshootlarning yig'ma va yaxlit (monolit) beton va temir beton konstruksiyalari uchun beton qorishmasini loyihaga muvofiq tayyorlash, qolipni o'rnatish, armatura to'rlari va karkaslarini tayyorlash va qolipga o'rnatish, beton qorishmasini qolipga quyish, zichlash, tekislash, beton qotish davrida zarur bo'lgan texnologik jarayonlarini amalga oshirish qolipdan ajratish ishlari loyiha talablari, qurilish me'yorlari va qoidalarga muvofiq mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi qoidalarga rioya qilgan holda bajarish	
5.	Qamrab olinadigan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		71140001 Armaturachi	3
		71140002 Armaturachi betonchi	3
		71140007 Betonchi	3
		71140008 Betonchi-duradgor (opalubkachi)	3
		71140017 Sementlovchi	3

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
№	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1	71140001 Armaturchi	A1.3	Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash	A1.01.3	Balandlikda ishlashda mehnatni muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari va me'yorlariga rioya qilish
				A1.02.3	Yong'in xavfsizligi talablarini bajarish
		A2.3	Oddiy armatura konstruksiyalarini tayyorlash va montaj ishlarini bajarish	A2.01.3	Oddiy armatura konstruksiyalarini tayyorlash va montaj ishlarini bajarish uchun tayyorlik ishlarini amalga oshirish
				A2.02.3	Armaturchani bukish, hajmiy karkaslarni to'qish
				A2.03.3	Alohida armatura o'zaklari, (sterjen) armatura to'rlari, tekis va hajmiy karkaslarni o'rnatish
		A3.3	O'rtacha murakkablikdagi armatura konstruksiyalarini tayyorlash va montaj qilish ishlarini bajarish	A3.01.3	O'rtacha murakkablikdagi armatura konstruksiyalarni tayyorlash va montaj ishlarini bajarish uchun tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish
				A3.02.3	Armaturchani kesish, bukish va armatura to'rlarini hamda hajmiy karkaslarni yig'ish
				A3.03.3	Alohida armatura o'zakdan tayyorlangan armatura to'rlari, tekis va hajmiy karkaslarni yig'ish va o'rnatish
		A4.3	Murakkab armatura konstruksiyalarni tayyorlash va montaj qilish ishlarini bajarish	A4.01.3	Harakatlanuvchi qolip bilan betonlashda hajmiy armatura karkaslarni yig'ish va o'rnatish uchun alohida sim hamda armatura bog'lamlarini tayyorlash
				A4.02.3	Bino va inshootlar konstruksiyalaridagi armaturalar va armatura bog'lamlarini o'rnatishda oldindan kuchlantirish
				A4.03.3	Qurilishdagi konstruksiyalarning alohida armaturalarini anker boltlar va qo'yma detallarini montaj qilish
				A4.04.3	Kapital qurilish obyektlarining yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning hajmiy armatura karkaslarini montaj qilish
2	71140002 Armaturchi betonchi	B1.3	Armaturcha va beton ishlarini bajarishda mehnat muhofazasi talablari	B1.01.3	Armaturcha va beton ishlarini bajarishda mehnat muhofazasi xavfsizlik texnikasi, yong'in va elektr himoyasi talablarini bajarish
				B1.02.3	Armaturcha va beton ishlarini bajarishda resurslarni tejash talablarini bajarish

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
№	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
		B2.3	Armatura ishlarini bajarish	B2.01.3	Qurilish obyektida temir beton konstruksiyalar uchun armaturani tayyorlash
				B2.02.3	Armatura to'rlari va karkaslarni tayyorlash
				B2.03.3	Mashinalar va mexanizmlarda og'ir armatura qismlarini ko'chirish va joylashtirish
		B3.3	Beton ishlarini bajarish	B3.01.3	Beton qorishmasini tayyorlash
				B3.02.3	Beton qorishmasi uchun qolipni o'rnatish
				B3.03.3	Beton ishlarini amalga oshirishda sifat nazorati
3	71140007 Betonchi	D1.3	Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, talablarini bajarish	D1.01.3	Ish joyini tayyorlash jarayonida xavfsizlik texnikasi talablarini bajarish
				D1.02.3	Beton ishlarini bajarish jarayonida xavfsizlik texnikasi talablarini bajarish
				D1.03.3	Beton ishlarini yakunida xavfsizlik texnikasi talablarini bajarish
				D1.04.3	Favqulodda vaziyatlar va avariya sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish
		D2.3	Beton ishlarini bajarishda tayyorgarlik ishlari	D2.01.3	Ish joyini, materiallar va jihozlarni tayyorlash
				D2.02.3	Beton qorishmasini, qolip va armaturani tayyorlash
		D3.3	Beton ishlarini bajarish	D3.01.3	Tekis yuzalar, vertikal konstruksiyalar va qiya yuzalarni betonlash
				D3.02.3	Pollarning beton asosi va sement qoplamasini to'shama qatlamini betonlash ishlarini bajarish
				D3.03.3	Beton va temir beton gorizontal konstruksiyalar, sement pollarni ta'mirlash
		D4.3	Murakkab beton ishlarini bajarish	D4.01.3	Murakkab temir beton konstruksiyalarga beton qorishmasini, jumladan o'ta og'ir va maxsus beton qorishmasini yotqizish
				D4.02.3	Turbogeneratorlar ta'minlovchi nasos poydevorlarining qo'yma detallarini o'rnatib beton yotqizish, skvajina va transheyalarga beton yotqizish

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
№	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
		D5.3	Beton ishlarini boshqarish	D5.01.3	Beton ishlarini tashkil etish
				D5.02.3	Beton ishlari sifatini tezkor nazorati va topshirish
4	71140008 Betonchi- duradgor (opalubkachi)	E1.3	Qolip ishlarini bajarishda mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi talablari	E1.01.3	Balandlikda ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me'yorlariga rioya qilish
				E1.02.3	Elektr, pnevmatik ish qurollari va jihozlari bilan ishlashda mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi talablari va me'yorlariga rioya qilish
				E1.03.3	Yong'in xavfsizligi talablarini bajarish
		E2.3	To'g'ri chizikli konstruksiyalarni qoliplarini montaj qilishda tayyorlik va yordamchi ishlarni bajarish	E2.01.3	To'g'ri chizikli konstruksiyalarning qoliplarini montajga tayyorlash
				E2.02.3	To'g'ri chizikli konstruksiyalarning yig'ma qoliplarini materiallar, yarim tayyor mahsulotlarni detallar va uskunalarni montaj maydoniga uzatish
		E3.3	To'g'ri chizikli konstruksiyalarni qoliplarini montaj qilish ishlarini bajarish	E3.01.3	To'g'ri chizikli konstruksiyalarni qoliplarini montaj qilish va yechish
				E3.02.3	Montaj qilingan qolip konstruksiyalarini mahkamlash
		E4.3	To'g'ri va egri chizikli konstruksiyalarni qoliplarini montaj qilish ishlarini bajarish	E4.01.3	To'g'ri va egri chizikli konstruksiyalarni qoliplarini, qismlarini va montaj joyini tayyorlash
				E4.02.3	To'g'ri va egri chizikli konstruksiyalarni qoliplarini hamda qismlarini montaj qilish va yechish
		E5.3	Turli xildagi gumbaz, gumbaz qobiqlarini qoliplarini montaj qilish	E5.01.3	Turli xildagi gumbaz, gumbaz qobiqlarini qoliplarining mustahkamlik va barqarorlik talablari
				E5.02.3	Turli xildagi gumbaz, gumbaz qobiqlarini qoliplarini montaj qilish

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
№	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
5	71140017 Sementlovchi	F1.3	Binolar va inshootlar asoslarini sementlash usulida mustahkamlash, sement qorish, agregatlarini yuvishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablarini bajarish	F1.01.3	Binolar va inshootlar asoslarini sementlash usulida mustahkamlashda sementlash, sement qorish, kislota bilan yuvish agregatlarini ishlatishda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablarini bajarish
		F2.3	Binolar va inshootlar asoslarini sementlash, mustahkamlashda sement qorish agregatini ishlatish	F2.01.3	Binolar va inshootlar asoslarini sementlashda sementlash agregatini tayyorlash ishlarini bajarish
				F2.02.3	Binolar va inshootlar asoslarini sementlashda sementlash agregatini boshqarish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Armaturchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71140	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	<p>Armatura ishlarini bajarish tajribasi bo'lgani afzal; Armatura ishlarida qo'llaniladigan elektr va dastaki ish qurollari o'lchov asboblari va o'lchov uskunalari bilan ishlash bo'yicha amaliy tajriba; Qurilish chizmalarni o'qish va tushunish tajribasi</p>	
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	<p>18 yoshga to'lgan shaxslar ishlashga ruxsat etiladi; O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda majburiy dastlabki (ishga kirishda) va davriy tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan), shuningdek navbatdan tashqari tibbiy ko'rikdan (tekshiruvdan) o'tish; Ishlab chiqarish faoliyatiga xalaqit beradigan doimiy kasalliklar yoki nogironlikning mavjud emasligi; Mehnatni muhofaza qilish talablari bo'yicha o'qish bilimlarini sinovdan o'tkazish, mehnatni muhofaza qilish bo'yicha instruktlarda qatnashish, ish joyida malaka oshirish va mustaqil ishlash uchun ruxsat olish; Xavfsizlik texnikasi talablari bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish; Tegishli dasturga muvofiq yong'in xavfsizligi talablari va yong'in-texnik minimumi bo'yicha o'qish va bilimlarni sinovdan o'tkazish; Tegishli nazariy va amaliy mashg'ulotlardan so'ng bilimlarni sinovdan o'tkazish va elektr jihozlari bilan ishlashga ruxsat olish; Belgilangan me'yorlar va talablarga muvofiq maxsus kiyim va boshqa shaxsiy himoya vositalaridan (SHHV) foydalanish qoidalariga rioya qilish; Balandlikda ishlar olib borilgan taqdirda balandlikda ishlashga ruxsatning mavjudligi</p>	
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	Boshlang'ich professional ta'lim	
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	1) O'rta maxsus ta'lim 2) Umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reyestrda mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	Armaturchi betonchi	
Boshqa kasblar bilan aloqasi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Armaturchi betonchi

Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
<p>A1.3- Texnika xavfsizligi va mehnat muhofazasini ta'minlash</p>	<p>A1.01.3- Balandlikda ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi talablari va me'yorlariga rioya qilish</p>	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Balandlikda ishlaganda ishlatiladigan asbob-uskunalarining xavfsizligini va soz bo'lishini ta'minlash uchun ularni muntazam ravishda tekshirish va ularga xizmat ko'rsatish
		2. Balandlikda ishlash uchun o'tkazilgan instruktajlar, tekshiruvlar va xavfsizlikni ta'minlash choralari ko'rish
		3. Xavfsizlik talablarining aniqlangan buzilishlariga tezkor chora ko'rish va ularni bartaraf etish choralari ko'rish
		3. Balandlikdagi ish joyini xavfsizlik talablariga muvofiq tayyorlash, shu jumladan to'siqlar va xavfsizlik tizimlarini o'rnatish
		4. Balandlikda ishlashga mos shaxsiy himoya vositalari (poyabzal, shlem, himoya ko'zoynak, qo'lqoplar) xavfsizlik kamari mahkamlanganini tekshirish foydalanish
		5. Armaturani ko'tarish, joylash, kesish yoki bog'lashda xavfsizlikka rioya qilish
		6. Balandlikda ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi bo'yicha barcha talablarga rioya qilish
		Ko'nikmalar:
		Balandlikda ishlashda xavfsizlik kamarini to'g'ri taqish va ish joyiga mahkam bog'lashni bilish
		Shlem, qo'lqop, sirpanmas taglikli poyabzal, ko'zoynak kabi shaxsiy himoya vositalarining maqsadini, qanday holatda va qayerda ishlatilishini bilish, ulardan foydalanish
		Balandlikda ishlaganda ishlatiladigan asbob-uskunalarining xavfsizligini va soz bo'lishini ta'minlash uchun ularni muntazam ravishda tekshirish va ularga xizmat ko'rsatish usullarini samarali qo'llash
		Balandlikdagi tayanch va ustunlarning barqarorligini tekshirish
		Armaturani ko'tarish, bog'lash, joylash jarayonlarida shaxsiy va atrofdagi xodimlar xavfsizligini ta'minlashni bilish
Himoya vositalarining ishlash muddati va yaroqliligini aniqlash ko'nikmasiga ega		
Baland joylarda turib ishlashda og'ir yuklarni xavfsiz usulda ko'tarish va joylashtirish		

		Balandlikdagi harakatlar davomida xavfsizlik kamari bilan o'zini mustahkamlab turishni doimiy ravishda bajarish
		Balandlikdagi ish joyini xavfsizlik talablariga muvofiq tayyorlash, shu jumladan to'siqlar va xavfsizlik tizimlarini o'rnatish usullarini qo'llash
		Ish joyida mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar va qoidalar talablarini bajarish
		Bilimlar:
		Balandlikda ishlaganda asbob va uskunalardan foydalanishda qo'yiladigan talablar
		Xavfsizlik kamarlari, shlemlar, qo'lqoplar, sirpanmas poyabzal va boshqa SHHV turlari, ularning vazifasi va foydalanish qoidalarini bilishi
		SHHV ni to'g'ri tanlash, to'g'ri kiyish va doimiy ravishda holatini nazorat qilish bilimlariga ega bo'lishi
		Balandlikda ishlashda yuzaga keladigan asosiy xavf turlari: Yiqilish xavfi; Asboblardan yoki armatura elementlarining tushib ketishi; Elektr uzatuvchi liniyalarga yaqin ishlash xavfi; Ob-havo sharoiti ta'siri (shamol, yomg'ir)
		Balandlikdan yiqilish, jarohat, yong'in, asbobning buzilishi va boshqa holatlarda nima qilish kerakligi haqida bilishi
		Balandlikda ishlash uchun zarur bo'lgan ruxsatnomalar, yo'riqnomalar va xavfsizlik jurnallarini to'ldirish, imzolash tartibi
		Tasodifiy tushib ketish, muvozanatni yo'qotish, elektr toki ta'siri kabi xavflarni va ularni bartaraf etish choralarini bilishi
		Balandlikda ishlashda mehnat muhofazasi va xavfsizlik talablari
	A1.02.3- Yong'in xavfsizligi talablarini bajarish	Mehnat harakatlari:
		1. Armatura ishlarida qo'llaniladigan tez alanganuvchi, yonuvchi materiallarni ishlatish tartibini bajarish
		2. Ish boshlashdan oldin yong'in xavfi yuqori bo'lgan materiallarni ajratib ishlatish
		3. Armatura ishlarida qo'llaniladigan yonuvchi materiallarni saqlash tartibini bajarish
		4. Yong'in xavfi sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish tartibi
		5. Ish joyida yong'in o'chiruvchi vositalar (o't o'chirgich, qum, suv) borligini tekshiradi

		<p>6. Elektr uskunalari faqat xizmatga yaroqli va izolyatsiyalangan holda ishlatish</p> <p>7. Elektrod, kislovodorod, yoki kislota bilan ishlayotganda yong'in chiqishi xavfini hisobga olish</p> <p>8. Payvandlash, kesish kabi ishlarni yong'in xavfi bo'lmagan joylarda amalga oshiradi</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Qurilishda yong'in xavfsizligi talablarini bajarish</p> <p>Birlamchi o't o'chirish vositalarini saqlash, ishga tushirishning samarali usullarini qo'llash</p> <p>Yonuvchi materiallarni saqlash talablarini samarali bajarish usullarini qo'llash</p> <p>Yong'in xavfi sodir bo'lganda evakuatsiya yo'llaridan tezkor harakatlanish usullari</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Qurilishda yong'in xavfsizligi talablari</p> <p>Birlamchi o't o'chirish vositalari va ularni samarali qo'llash usullari</p> <p>Qurilish maydonida yong'in sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanish, zarur materiallar va moddiy boyliklar saqlash tartibi</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Ish jarayonida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga qat'iy rioya qilish</p> <p>2. Ish joyi va asbob-uskunalarining xavfsizligini muntazam nazorat qilish va aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish</p>
<p>A2.3- Oddiy armatura konstruksiyalarini tayyorlash va montaj ishlarini bajarish</p>	<p>A2.01.3- Oddiy armatura konstruksiyalarini tayyorlash va montaj ishlarini bajarish uchun tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Qo'llaniladigan armatura turlari, diametri va uzunligi haqida ma'lumotga ega bo'lish</p> <p>2. Armatura konstruksiyasini tayyorlash uchun zarur materiallar ish qurollari jihozlari va uskunalarni tayyorlash</p> <p>3. Loyiha-smeta hujjatlari va ishchi chizmalarini o'qish qolip va armatura sxemalarini tushunish, chizmalarga muvofiq kesish ishlarini bajarish</p> <p>4. Qo'l va mexanik uskunalar yordamida kesish. (armatura keskich, bolgarka, press-mexanizmlar)</p> <p>5. Elektromexanik va elektr dastgohlarda armaturani kesish</p> <p>6. Qo'lda yoki maxsus uskunalarda (armatura eguvchi stanok) yordamida kerakli formada egish</p> <p>7. Shaxsiy himoya vositalaridan (qalqon, ko'zoynak, qo'lqop poyabzal) foydalanish</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Armatura konstruksiyasini tayyorlash uchun materiallar, ish qurollari va jihozlarni tanlash</p>

		Armatura ishlarini bajarish uchun qolip tayyorligini aniqlash
		Armaturaning joylashishi, o'lchamlari va shakli haqida to'g'ri xulosa chiqarish
		Qo'l yoki mexanik qurilmalarda armaturani to'g'ri va xavfsiz kesish
		Balandlikda ishlash qoidalariga rioya qilish
		Chizmaga mos ravishda armaturani egish va shakl berish
		Shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri tanlash va foydalanish
		Armatura eguvchi, kesuvchi, presslash uskunalarni to'g'ri ishga tushirish va ishlatish
		Mehnat muhofazasi, yong'in himoyasi va elektr xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Armatura ishlarida qo'llaniladigan materiallarning turlari va xossalari
		Qolip (opalubka) va armaturalar uchun joy tayyorlash
		Qaychi, armatura burish uskunasi, pichoq, armaturani kesuvchi asboblarni tayyorlash
		Asboblarni holatini tekshirib, nosozlik bo'lsa, ustalarga ma'lum qilish
		Qolipni o'rnatish va qolipga armaturani joylashtirish bo'yicha talablar
		Armatura ishlarini bajarishda mehnat muhofazasi, yong'in va elektr xavfsizligi talablari
		Armaturalarni kesish, burish ishlari amalga oshirish
		Shaxsiy muhofaza vositalaridan (kaska, qo'lqop, botinka) foydalanish
		Mehnat harakatlari:
	1. Loyiha (chizma) bo'yicha armatura elementlarining o'lcham va egri shakllarini bilish	
	2. Dastaki, elektromexanik va elektr dastgohlarda armaturani kesish va bukish ishlarini bajarish	
	3. Armatura to'rlari va tekis karkaslarni tayyorlash uchun zarur armatura miqdori va turini aniqlash	
	4. Armatura to'rlari va tekis karkaslarni yig'ish va to'qish ishlarini bajarish	
	5. Bukish joylarida metallni shikastlamaslikka e'tibor berish	
	6. Qo'lda yoki maxsus uskuna (armatura bog'lash pistoletlari) orqali bog'lash simlari bilan elementlarni mahkamlash	
	7. Yo'g'on/asosiy armatura bilan yordamchi (xomut va qo'shimcha) armaturani bog'lab, to'rt tomonlama yoki silindrik karkas shakllantirish	
	A2.02.3- Armaturani bukish, hajmiy karkaslarni to'qish	

		8. Bog'lash joylarining mahkamligini tekshirish harakatlanmasligi kerak
		9. Karkasni ko'tarish, tashish va montaj uchun tayyor holatga keltirish
		10. Ish paytida shaxsiy muhofaza vositalarini (qo'lqop, ko'zoynak, kaska) foydalanish
		Ko'nikmalar:
		Armaturani bog'lash armatura karkaslarini yig'ish uchun dastaki ish qurollaridan foydalanish
		Armaturani kerakli o'lchamda aniq kesish, qo'l va mexanik uskunada to'g'ri va aniq bukish
		Bukishda metallni shikastlamay shakl berish
		Simli bog'lash usullarini (qo'lda, uskunada) to'g'ri qo'llash
		To'rt tomonlama va silindrik karkaslar tuzish
		Bog'lash joylarini mustahkam va aniq qilish
		Tayyor karkasni ko'tarish va montaj uchun tayyorlash
		Mehnat muhofazasi, yong'in va elektr xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Qurilish loyihalari va konstruksiya chizmalarini o'qish va tushunish
		Armatura elementlarining o'lchamlari, shakli, bukish nuqtalari va karkas sxemalarini aniqlash
		Korroziyadan himoya qilish usullari
		Qo'l va mexanik uskunalarda armaturani bukish usullari
		Karkas bog'lash simlari va asboblardan xavfsiz va to'g'ri foydalanish usullari
		Armaturani tayyorlashda ishlatiladigan dastaki, elektromexanik, elektr dastgohlari
		Armaturani yig'ish va bog'lash qoidalari
		Shaxsiy muhofaza vositalaridan to'g'ri foydalanish tartibi
		Mehnat muhofazasi, yong'in xavfsizligi va elektr xavfsizligi talablari
	A2.03.3- Alohida armatura o'zaklari, (sterjen) armatura to'rlari, tekis va hajmiy karkaslarni o'rnatish	Mehnat harakatlari:
		1. Bino va inshootlarning poydevorlari va plitalari uchun aloqa po'lat armatura o'zaklarini o'rnatish
		2. Tayyor armatura to'rlarini temir beton konstruksiyalarga joylashtirish
		3. Armatura o'zaklarini belgilangan masofada, chizmalarga muvofiq joylashtirish
		4. Armatura to'rlarini tayyor joyga tekis yotqizish va o'zaro bog'lash
		5. To'r va o'zaklarni (sterjen) sim yordamida mahkamlash

		<p>6. Karkaslarni belgilangan joyga ko'tarib o'rnatish</p> <p>7. Karkas elementlarini o'zaro bog'lash va siljib ketmasligi uchun mustahkamlash</p> <p>8. O'rnatilgan konstruksiyalarni o'lchov asboblari bilan tekshirish</p> <p>9. Ish jarayonida xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qiladi</p> <p>10. Mehnat muhofazasi talablariga muvofiq armatura ishlarini bajarish uchun ish joyini tayyorlash</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Armaturani bog'lash va armatura karkaslarini tayyorlashda dastaki ish quollaridan foydalanish</p> <p>Armatura elementlarini aniq va tekis joylashtirish ko'nikmasi</p> <p>Karkaslarni simlar bilan mahkam bog'lash</p> <p>Karkaslarni to'g'ri shaklda yig'ish va joylashtirish</p> <p>O'lchov asboblardan foydalanish ko'nikmasi</p> <p>Asbob-uskunalardan xavfsiz foydalanish</p> <p>Montaj ishlarida jamoa bilan hamkorlikda ishlash</p> <p>Bino va inshootlarning konstruksiyalari oddiy qo'yma detallarini o'rnatish ishlarini bajarish</p> <p>Armaturani qo'lda bog'lash usulida mahkamlash</p> <p>Mehnat muhofazasi, yong'in himoyasi va elektr xavfsizligi talablariga rioya qilish</p> <p>Bilimlar:</p> <p>Qurilish konstruksiyalarining turlari</p> <p>Armatura ishlarida qo'llaniladigan asboblari va jihozlarning vazifasi</p> <p>Texnik chizmalarni o'qish qoidalari</p> <p>Armaturani bog'lash usullari va turlari</p> <p>Armatura va armatura konstruksiyalarini yig'ish, o'rnatish va mahkamlash usullari</p> <p>Mehnat muhofazasi, yong'in himoyasi va elektr xavfsizligi talablari</p>
	Mas'uliyat va mustaqillik:	<p>1. Armatura konstruksiyalarini tayyorlash va montaj qilishda loyiha va texnologik talablarni qat'iy bajarish.</p> <p>2. Armaturaning o'lchami, shakli va joylashuvining loyihaga mosligini ta'minlash</p>
A3.3- O'rtacha murakkablikdagi armatura konstruksiyalarini tayyorlash va	A3.01.3- O'rtacha murakkablikdagi armatura konstruksiyalarni tayyorlash va	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. O'rtacha murakkablikdagi armatura konstruksiyalarni tayyorlash va montaj qilish uchun berilgan topshiriq va ishchi loyiha talablariga asosan materiallar ish quollari va jihozlarni tanlash</p>

montaj qilish ishlarini bajarish	montaj ishlarini bajarish uchun tayyorgarlik ishlarini amalga oshirish	2. Qurilish chizmalari, sxemalar va montaj tartiblari tushunish
		3. Armaturani joylashtirish uchun o'rnatilgan qolipni to'g'ri o'rnatilganini tekshirish
		4. Armaturani kesish, egish, payvandlash, bog'lash uskunalarni ishlash holatini tekshirish
		5. Himoya vositalarini (qo'lqop, ko'zoynak, nimcha va b.) ta'minlash
		6. Uskuna yordamida yoki qo'lda bog'lash uchun sim va payvandlash vositalarini tayyorlash
		7. Mehnat muhofazasi talablariga muvofiq ish joyini tayyorlash
		Ko'nikmalar:
		O'rtacha murakkablikdagi armatura konstruksiyalarini tayyorlash va montaj qilishda ish joyini tashkil etish
		Armaturalarni sim bilan bog'lash yoki payvandlash usullarini to'g'ri qo'llash
		Armaturani bog'lash uchun dastaki asboblarni ishlatish
		Armaturani belgilangan o'lchamlarga muvofiq aniq kesish
		Armaturani maxsus uskunalar yordamida to'g'ri egish
		Qurilish maydonida armaturani ko'chirish
		Armaturani kesish, egish, payvandlash va bog'lash asboblardan xavfsiz va samarali foydalanish
		Karkas, to'r va boshqa elementlarni yig'ish uchun zarur bo'lgan qismlarni tayyor holatga keltirish
		Balandlikda ishlashda qoidalarga rioya qilish
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish
		Bilimlar:
		Armatura ishlarida qo'llaniladigan materiallarning turlari va xossalari
		Ishchi chizmalarni o'qish va tushunish
		Qoliplarni o'rnatish, o'rnatilgan qoliplarga armatura konstruksiyalarni joylashtirishda texnik talablar
		Armaturani kesish, egish, bog'lash va payvandlash usullari
		Tayyor konstruksiyani betonlashga tayyorlash shartlari
Elektr kesish va payvandlash uskunalar bilan ishlashda xavfsizlik talablari		
Favqulodda holatlarda to'g'ri harakat qilish tartibi		
Mehnatni muhofaza qilish xavfsizlik texnikasi talablari		

		Balandlikda va og'ir yuklar bilan ishlashda qo'llaniladigan shaxsiy himoya vositalari
	A3.02.3- Armaturani kesish, bukish va armatura to'rlarini hamda hajmiy karkaslarni yig'ish	Mehnat harakatlari:
		1. Armaturani kesish, bukish va armatura to'rlarini hamda hajmini karkaslarni yig'ish ishlarini bajarish uchun ish joyini tayyorlash
		2. Loyihaviy hujjatlarga asosan kerakli o'lchamlarni aniqlash
		3. O'rnatilgan armatura to'rlari va karkaslarni to'g'ri o'rnatilganini tekshirish
		4. Mexanik yoki elektr keskich orqali aniq va to'g'ri kesish va bukish ishlarini bajarish
		5. Kesilgan armaturani to'g'ri joylash va mahkamlash
		6. Tayyor karkasni betonlash uchun belgilangan joyga rejaga muvofiq joylash
		7. Egilgan elementlarni tekshirish va kerak bo'lsa, qayta tuzatish
		8. Asbob— uskunalarni ishlatishda xavfsizlik qoidalariga amal qilish
		9. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (qo'lqop, ko'zoynak, nimcha)
		Ko'nikmalar:
		Armaturani kesish, bukish va armatura to'rlarini hamda karkaslarni yig'ish uchun ish joyini tashkil etish
		Armaturani kesish, bukish va armatura to'rlarini hamda karkaslarni yig'ish uchun dastaki elektr va pnevmatik ish qurollaridan foydalanish
		Chizma o'lchamlarga asosan armaturani aniq va samarali belgilangan uzunlikda kesish
		Bukish jarayonida armaturaning sinish yoki buzilishiga yo'l qo'ymaslik
		Loyihaviy talablarga muvofiq burchak va radiuslarda aniq bukishni amalga oshirish, bukilgan detallarni o'lchov asboblari yordamida tekshirish
		To'rlar va armatura o'zaklarini vertikal va gorizontal holda bog'lashni bilish
		Qismlarni qat'iy loyiha talablariga mos holda joylash
		Karkasni mustahkam va uzoq muddatli qilib tayyorlash uchun qo'shimcha bog'lash/mustahkamlash usullarini qo'llay olish
		Armatura kesish, bukish va bog'lash asboblarni to'g'ri tanlash va ishlatish
	Xatolarni barvaqt aniqlab, to'g'rilash yo'llarini bilish	

		Mehnat muhofazasi, yong'in himoyasi, elektr xavfsizligi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Armaturani kesish, bukish va armatura to'rlarini hamda hajmini karkaslarni yig'ish ishlarini bajarishda qo'llaniladigan dastaki, elektr va pnevmatik ish qurollarini turlari, tuzilishi va vazifalari
		Armatura ishlari uchun chizma va sxemalarni tushunish
		Armatura diametri, uzunligi, masofasi va shakliga oid talablarni aniqlash
		Armaturning diametr, uzunlik va mustahkamlik xususiyatlari
		Armatura to'rlari va karkaslarida armatura o'zaklarini joylashuvini o'lchash, rejalash va tekshirish
		Belgilash va o'lchashni loyiha bo'yicha to'g'ri amalga oshirishni bilish
		Kesish va bukish amalga oshirilishi (qo'lbola, mexanik, elektr uskunalari)
		Kesish va bukishda xavfsizlikni ta'minlash uslublari
	A3.03.3- Alohida armatura o'zakdan tayyorlangan armatura to'rlari, tekis va hajmiy karkaslarni yig'ish va o'rnatish	Mehnat harakatlari:
		1. Alohida armatura o'zakdan tayyorlangan armatura to'rlari, tekis va hajmiy karkaslarni yig'ish va o'rnatish uchun ish joyini tayyorlash
		2. Loyiha hujjatlarini o'rganish (chizmalar, o'lchamlar, talablar)
		3. Montaj qilinayotgan konstruksiyalarga qo'yima detallar va anker boltlarini o'rnatish
		4. Armaturani qo'lda yoki yarim avtomat pistolet yordamida mahkamlash
		5. Armatura o'zaklarini ajratish va ularni to'g'rilash, tozalash
		6. Armatura prutlarni belgilangan o'lchamda kesish
		7. Qismlarni belgilangan radius yoki burchakda bukkitish
		8. To'r va karkaslarni payvandlash yoki simlash usulida birlashtirish
		9. Xavfsizlik texnikasi qoidalariga rioya qilish
10. Zarur asbob-uskunalarini va shaxsiy himoya vositalarini tayyorlash		
Ko'nikmalar:		
Alohida armatura o'zakdan tayyorlangan armatura to'rlari, tekis va hajmiy karkaslarni yig'ish va o'rnatish uchun ish joyini tashkil etish		

		Alohida armatura o'zakdan tayyorlangan armatura to'rlari, tekis va hajmiy karkaslarni ishchi chizmalarini o'qish
		Yig'ilgan to'r va karkaslarni loyihaga muvofiq betonlash joyiga joylashtirish
		Metall prutlarni chizmalar bo'yicha aniq o'lchovlarda kesa olish
		Qismlarni belgilangan burchak va radiusda bositish, to'g'ri va qiya burchakda armatura to'rlarini yig'ish
		Armatura elementlarini simlash (sim bilan bog'lash) yoki payvandlash orqali birlashtirish
		Vertikal va gorizontol holatda karkaslar mustahkamligini ta'minlash
		Qoliplar ichiga aniq va xavfsiz joylashtirish
		Armaturaning o'lchami, diametri va joylashish yo'nalishini tushunish
		Armatura keskich, bukkuch, payvandlash uskunalari va boshqa qurilmalar bilan ishlash
		Mehnat muhofazasi xavfsizlik texnikasi, yong'in himoya vositalaridan va elektr xavfsizligi talablari rioya qilish
		Bilimlar:
		Armatura sinflari, markalash va belgilash, armaturalarning xossalari
		Armatura ishlarida qo'llaniladigan dastaki, elektr va pnevmatik ish qurollarini tuzilishi, turlari va ishlatish tartibi
		Chizmalar va loyihaviy hujjatlarni o'qish va tushunish
		Armaturani kesish, payvandlash va bog'lash usullari
		Qolip va betonlash ishlari bilan bog'liq bilimlar
		Armatura to'rlari va karkaslarni tuzish me'yorlari va talablari
		Armatura keskich, bukkuch, payvandlash uskunalari, sim bog'lagichlar va ulardan to'g'ri foydalanish
		O'rtacha murakkablikdagi armatura konstruksiyalarini yig'ish o'rnatish va mahkamlash usullari hamda uslublari
		Asboblarning tuzilishi, ishlash tartibi va ularni texnik xizmat ko'rsatish usullari
		Elektr uskunalari bilan ishlashda xavfsizlik bilimlari
		Balandlikda ishlashda ehtiyot chorolari va shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish tartibi

	<p>Mas'uliyat va mustaqillik:</p>	<p>1. O'rtacha murakkablikdagi armatura konstruksiyalarini tayyorlash va montaj qilishda loyiha va texnologik talablarni to'liq bajarish</p> <p>2. Armatura elementlarining shakli, o'lchami va joylashuvining loyihaga mosligini nazorat qilish</p> <p>3. Murakkab elementlarni bog'lash va mahkamlashda mustahkamlik va barqarorlikni ta'minlash</p>
<p>A4.3- Murakkab armatura konstruksiyalarni tayyorlash va montaj qilish ishlarini bajarish</p>	<p>A4.01.3- Harakatlanuvchi qolip bilan betonlashda hajmiy armatura karkaslarni yig'ish va o'rnatish uchun alohida sim hamda armatura bog'lamlarini tayyorlash</p>	<p>Mehnat harakatlari:</p> <p>1. Harakatlanuvchi qolip bilan betonlashda hajmiy armatura karkaslarni yig'ish va o'rnatish uchun alohida zarur asbob-uskunalar va materiallarni sim, armatura armatura bog'lamlarini tayyorlash uchun ish joyini tayyorlash</p> <p>2. Loyiha va chizmalarni o'rganish (armatura joylashishi, o'lchamlari va tuzilishi)</p> <p>3. Armatura va simni belgilangan o'lchamda kesish, belgilangan shakl va o'lchamda bukish</p> <p>4. Sim bog'lamlarini belgilangan uzunlikda tayyorlash</p> <p>5. Elementlarni sim orqali bog'lash yoki payvandlash</p> <p>6. Yig'ilgan karkaslarni betonlanadigan joyga ehtiyotkorlik bilan ko'chirish</p> <p>7. Karkaslarni vertikal va gorizontal holatda to'g'ri va mustahkam joylash</p> <p>8. Har bir bog'lamning mustahkamligini tekshirish</p> <p>9. Armaturani qo'lda bog'lash yoki bog'lash pistoleti yordamida mahkamlash</p> <p>10. Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish (balandlikda ishlash, sim va temirlar bilan ishlashda ehtiyot choralari)</p> <p>Ko'nikmalar:</p> <p>Armatura ishlarini bajarish uchun ish joyini tashkil etish</p> <p>Loyiha rasmlarini o'qish, armatura turlari va o'lchamlarini aniqlash</p> <p>Armatura ishlarini bajarishda nazorat o'lchov asboblari, dastaki, elektr va pnevmatik ish qurollarida ishlash, bino va inshootlarning konstruksiyalarini tekis va hajmiy karkaslarni tayyorlash uchun chizmalarni o'qish</p> <p>Armaturani kesishni samarali usullarini qo'llash, armatura bo'laklarini samarali ishlatish</p> <p>Armatura bog'lash uchun sim tanlash, kesish va ishlatish ko'nikmasi</p> <p>Hajmiy karkaslarni loyihada ko'rsatilgan o'lcham va shaklga mos ravishda joylashni bilish</p>

		Ustalar va muhandislar bilan hamkorlikda ishlash
		Karkaslarni to'g'ri va mustahkam joylashtirish
		Qurilish maydonida armatura ishlarini bajarishda shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri va samarali qo'llash
		Qurilish maydonida armatura ishlarini bajarishda mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong'in himoyasi, elektr xavfsizligi talablarini ta'minlash
		Bilimlar:
		Armatura sinflari, markalari, xossalari va texnik tavsiflari
		Armatura ishlarida qo'llaniladigan dastaki, elektr va pnevmatik ish qurollarini turlari, tuzilishi va xavfsiz ishlatish usullari
		Armatura konstruksiyalarida armaturani o'rnatilishi tartibi
		Loyiha rasmlari, sxemalari va montaj bo'yicha texnik ko'rsatmalarni tushunish va unga asosan ish olib borish
		Hajmiy armatura karkaslarni to'g'ri shakllantirish, bog'lash va o'rnatishdagi asosiy prinsiplar
		Qolip qanday harakatlanishi, tezligi, uning konstruksiyasi va armaturani o'rnatishga qanday ta'sir ko'rsatishi haqida bilishi
		Sim va bog'lovchi elementlarning turlari va ularning qo'llanilishi
		Armatura ishlarida ishorali signalizatsiya usullari
		Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish (qo'lqop, ko'zoynak, nimcha, quloqqop, qurilish poyabzali)
		Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong'in himoyasi va elektr xavfsizligi talablari
A4.02.3- Bino va inshootlar konstruksiyalaridagi armaturalar va armatura bog'lamlarini o'rnatishda oldindan kuchlantirish	Mehnat harakatlari:	
	1. Bino va inshootlarning konstruksiyalari armatura o'zaklari va bog'lamlarini oldindan kuchlantirish	
	2. Bino va inshootlarning konstruksiyalarini oldindan kuchaytirilgan armatura o'zaklari va bog'lamlarini to'g'ri joylashtirish	
	3. Bino va inshootlarning konstruksiyalarini oldindan kuchaytirilgan armatura o'zaklari va bog'lamlarini montaj qilish	
	4. Loyihaga muvofiq armaturani belgilangan o'lchamda kesish	
	5. Armaturani tegishli joyga kran yoki qo'l yordamida olib chiqish, qo'lda yoki mexanik vositalar yordamida armatura bog'lamlarini sim bilan bog'lash	

		6. Kuchlanish berilishi uchun kerakli anker vositalarini tayyorlash va oʻrnatish
		7. Qolip oʻrnatishda armaturaga zarar yetkazmaslik uchun kerakli masofalarni saqlash
		8. Shaxsiy himoya vositalaridan (qoʻlqop, koʻzoynak, shlem) foydalanish
		Koʻnikmalar:
		Armatura ishlarida qoʻllaniladigan dastaki elektr va pnevmatik ish qurollari va jihozlarining turlari vazifasi
		Qoʻlda yoki maxsus asboblarda yordamida bogʻlovchi simlar bilan karkasni mustahkam bogʻlash
		Loyihaga asosan armaturani belgilangan oʻlchamda tayyorlash va tegishli joyga oʻrnatish
		Armaturani oldindan kuchlantirish mexanizmlarining ishlash tamoyillari
		Armatura sterjenlarini vertikal va gorizontal holatda ustma-ust, toʻgʻri masofada joylash
		Qolip ichida armatura joylashish qoidalariga amal qilish (beton qoplama qavati, oqib chiqishga qarshi himoya masofasi)
		Armaturani oldindan kuchlantirish jihozlari
		Boshqa mutaxassislar (muhandis, betonchi, kranchi va boshqalar) bilan muvofiq ishlash
		Oldindan kuchlantiriladigan tros, armatura simlari va maxsus anker uskunalari bilan ishlashni bilish
		Qoʻlqop, koʻzoynak, bosh kiyim, ishlovchi uskunalari bilan ishlashdagi xavfsizlik choralarini bilish
		Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi yongʻin himoyasi va elektr xavfsizligi talablari
		Bilimlar:
		Poʻlatning mustahkamlik chegarasi
		Betonning bosimdagi mustahkamligi
		Choʻzilish va siqilish deformatsiyalari
		Betonda ruxsat etilgan maksimal kuchlanishlar
		Statik aniqlanadigan va statik aniqlanmaydigan tizimlar
	A4.03.3-Qurilishdagi konstruksiyalarning alohida armaturalarini anker boltlar va qoʻyma detallarini montaj qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Murakkab konstruksiyalarning alohida armatura oʻzaklarini joylashish oʻrnini belgilash va montaj qilish
		2. Loyiha talablariga mos ravishda sterjenlar, anker boltlar va qoʻyma detallarni tanlab olish
		3. Oʻrnatish joylarini loyiha boʻyicha oʻlchash va belgilovchi chiziqlar qoʻyish

		4. Sterjenlarni qurilish maydonida belgilangan joylarga kran yoki qo'l bilan yetkazish
		5. Armaturalarni maxsus bog'lovchi simlar yoki mustahkamlovchi to'sinlar orqali qotirish
		6. Anker boltlarini betonga yoki konstruksiya asosiga loyiha bo'yicha teshiklarga to'g'ri joylash
		7. Bolti betonlashdan oldin maxsus ankerlash usullari bilan qotirish (mustahkamlash)
		8. Qo'yma detallarni (balka tayanchlari, plita burchaklari, mahkamlagichlar) belgilangan joylarga o'rnatish
		9. Qo'yma detallarni ankerlar, simlar, boltlar yoki payvand orqali konstruksiyaga biriktirish
		10. Kamchiliklar yoki og'ishlar bo'lsa, zudlik bilan bartaraf etish
		11. Shaxsiy himoya vositalaridan (qo'lqop, ko'zoynak, shlem, maxsus kiyim) foydalanish
		Ko'nikmalar:
		Qurilishdagi murakkab konstruksiyalarning alohida o'zak armaturalari, anker boltlari va qo'yma detallarni montaj qilish ishlarini bajarish uchun ish joyini tayyorlash
		Armatura chizmalari va montaj sxemalarini o'qish, belgilangan o'lcham, shakl va joylashuvni tushunish
		Sterjenlarni beton asosiga aniq masofada joylashtirish
		Simlar yoki maxsus bog'lovchi elementlar orqali ularni mustahkam qotirish
		Boltlarni fundament, taglik yoki qolipdagi belgilangan teshiklarga joylashtirish
		Qo'yma detallarni belgilangan joyga, belgilangan o'lcham, burchak va masofada aniq o'rnatish
		Detallar beton ostida harakatlanmasligi uchun kerakli qotirish choralarini ko'rish
		Konstruksiyadagi asosiy elementlarga sim, bolt yoki payvand bilan biriktirish
		Armatura qismlarining loyihaviy va haqiqiy joylashuvini aniqlash
		Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong'in himoyasi va elektr xavfsizligi talablarini bajarish
		Bilimlar:
		Qurilishda murakkab konstruksiyalarning alohida o'zak armaturalari, anker boltlari va qo'yma detallarni montaj qilish uchun dastaki, elektr va pnevmatik ish qurollari va asboblarning turlari vazifasi, tuzilishi va xavfsiz ishlatish usullari
		Ishchi chizmalarni o'qish qoidalari

		Uzun o'zak armaturalar (sterjenlar), taqsimlovchi armaturalar va karkas elementlarining qurilishdagi o'rni
		Oldindan kuchlantiriladigan va oddiy armaturalar o'rtasidagi farq
		Anker boltlar bilan ishlashdagi ehtiyot choralari, ayniqsa balandlikda yoki og'ir konstruksiyalar bilan ishlashda
		Armatura va anker elementlari to'g'ri joylashmagan bo'lsa, betonlash jarayonida qanday muammolar paydo bo'lishi mumkinligini bilish
		Armaturalar va armatura konstruksiyalarini yig'ish, o'rnatish va mahkamlash bog'lash usullari
		Armatura konstruksiyalarini montaj qilishda ishorali signalizatsiya usullari
		Shaxsiy himoya vositalaridan (qo'lqop, ko'zoynak, shlem, maxsus kiyim) foydalanish
		Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong'in himoyasi va elektr xavfsizligi talablari
	A4.04.3- Kapital qurilish obyektlarining yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning hajmiy armatura karkaslarini montaj qilish	Mehnat harakatlari:
		1. Qurilish obyektlarining yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning hajmiy armatura karkaslarini montaj qilish uchun ish joyi, asbob uskunalarni tayyorlash va tekshirish (armatura keskich, bukish uskunasi, sim bog'lagich)
		2. Kapital qurilish obyektlarida jumladan o'ta xavfli, texnik murakkab va noyob qurilish obyektlarining murakkab konstruksiyalarini hajmiy karkaslarini yig'ish
		3. Nazorat o'lchov asbobi yordamida o'rnatilgan armatura karkaslar va qo'yima detallarni to'g'ri joylashganini tekshirish
		4. Kapital qurilish obyektlarida jumladan o'ta xavfli, texnik murakkab va noyob qurilish obyektlarining murakkab konstruksiyalarini hajmiy karkaslarini montaj qilish
		5. Karkaslarning konstruktiv shakli, o'lchamlari va joylashishini aniqlash
		6. Armatura belgilari, diametri, uzunligi va joylashuvini aniqlash
7. Armatura elementlarini kerakli o'lchamda tayyorlash va bog'lash usullarini qo'llash		
8. Simli bog'lash usulida ishlash		
9. Balandlikda va tor joylarda yoki baland joylarda xavfsiz ishlash qoidalari (stropovka, trosalar, himoya vositalari)		
Ko'nikmalar:		
Mehnat muhofazasi me'yorlariga muvofiq kapital qurilish obyektlarida jumladan o'ta xavfli, texnik		

		murakkab va noyob qurilish obyektlarining murakkab konstruksiyalarini hajmiy karkaslarini montaj qilish uchun ish joyini tayyorlash
		Konstruktiv chizmalar, kesimlar va montaj sxemalarini o'qish
		Kapital qurilish obyektlarida jumladan o'ta xavfli, texnik murakkab va noyob qurilish obyektlarining murakkab konstruksiyalarini hajmiy karkaslarini montaj qilish ishlatiladigan dastaki, elektr va pnevmatik ish qurollarining turlari, vazifasi, tuzilishi va xavfsiz ishlatish usullari
		Armaturani loyihaga muvofiq kesish, bukish va belgilangan shaklga keltirish
		Qo'l yoki mexanizatsiyalashgan asboblardan foydalanib montaj qilish
		Armatura qismlarini yuk ko'tarish mexanizmiga ilish
		Anker boltlar, qo'yima detallar va mustahkamlovchi elementlarni to'g'ri o'rnatish
		Sim va yordamchi elementlardan foydalanib bog'lash usullarini qo'llash
		Armatura turi, o'lchamlari va joylashish tartibini aniq anglash
		Balandlikda va og'ir elementlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish
		Shaxsiy himoya vositalari (qo'lqop, kaska, belbog', ko'zoynak)dan foydalanish
		Yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning hajmiy karkaslarini tayyorlash, o'rnatish va mahkamlashda mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi talablariga rioya qilish
		Bilimlar:
		Qurilish konstruksiyalarining turlari
		Yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning hajmiy karkaslarini tayyorlash, o'rnatish va mahkamlashda ishlatiladigan dastaki, elektr pnevmatik ish qurollari va asboblarning turlari, vazifasi, tuzilishi va xavfsiz ishlatish usullari
		Yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning armatura va armatura konstruksiyalarining ishchi chizmalarni o'qish, ishchi chizmasiga muvofiq rejalash va tekshirish qoidalari
		Yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning armatura va armatura konstruksiyalarini tayyorlash, o'rnatish va mahkamlash
		Yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning armatura va armatura konstruksiyalarini montaj qilishda imo-ishorali signalizatsiya qoidalari

		Yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning armatura va armatura konstruksiyalarini tayyorlash, oʻrnatish va mahkamlash	
		Yuqori murakkablikdagi konstruksiyalarning armatura va armatura konstruksiyalarini tayyorlash, oʻrnatish va mahkamlashda mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yongʻin himoyasi va elektr xavfsizligi talablari	
	Masʼuliyat mustaqillik:	va	1. Balandlikda va ogʻir yuklar bilan ishlashda xavfsizlik choralarini koʻrishi lozim
			2. Armatura turi, oʻlchami va joylashishi boʻyicha xatolarga yoʻl qoʻymaslik
			3. Chizmalar va texnik hujjatlarga toʻliq mos montaj ishlarini amalga oshirish
			4. Qoplama qatlam qalinligini va montaj qoidalarini taʼminlash
			5. Shaxsiy va jamoaviy mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish
		6. Montaj uchun zarur asbob va materiallarni tayyorlash	
Texnik va/yoki texnologik talab		Bogʻlash joylari mustahkam, siljish va deformatsiyaga yoʻl qoʻyilmasligi lozim; Karkas montajidan keyin oʻrnida harakatlanmasligi va qotib turishi taʼminlash; Armatura zanglamasligi va ish joyida mexanik shikast koʻrmasligi lozim; Vertikal va gorizonta yoʻnalishlar montaj asboblari (nivelir, ruletk, shablon) yordamida tekshirilishi shart; Yuqori murakkablikdagi armatura konstruksiyalarini yigʻish va montaj qilishda mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yongʻin himoyasi va elektr xavfsizligi talablari	

Kasbning nomi:	Armaturchi betonchi	
Mashg'ulot nomining kodi:	71140	
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3	
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar	Tavsiya etiladi	
Amaliy tajriba (ish staji)ga qo'yilgan talablar:	Armatura va beton ishlarida qo'llaniladigan elektr va dastaki ish qurollari o'lchov asboblari va o'lchov uskunalari bilan ishlash bo'yicha amaliy tajriba; Qurilish chizmalarni o'qish va tushunish tajribasi	
